

**MAKROIQTISODIY VA HUDUDIY TADQIQOTLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.14/30.12.2019.I.84.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MAKROIQTISODIY VA HUDUDIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

**ASHUROVA SHAHINA BURXONJON QIZI**

**EKSPORT ZANJIRI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI  
O‘ZBEKISTONNING YEOII MAMLAKATLARIGA TASHQI SAVDO  
MUNOSABATLARINI KENGAYTIRISH**

**08.00.02 –Makroiqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent– 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on economical  
sciences**

**Ashurova Shahina Burhonjon qizi**

Eksport zanjiri samaradorligini oshirish orqali O‘zbekistonning YeOII mamlakatlariga tashqi savdo munosabatlarini kengaytirish.....3

**Ашурова Шахина Бурхонжон қизи**

Расширение внешнеторговых отношений Узбекистана со странами ЕАЭС путем повышения эффективности экспортной цепочки .....27

**Ashurova Shahina Burxonjon qizi**

Expanding Uzbekistan's foreign trade relations with EAEU countries through increasing the efficiency of the export chain.....54

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....59

**MAKROIQTISODIY VA HUDUDIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.14/30.12.2019.I.84.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**MAKROIQTISODIY VA HUDUDIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

**ASHUROVA SHAHINA BURXONJON QIZI**

**EKSPORT ZANJIRI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI**  
**O‘ZBEKISTONNING YEOII MAMLAKATLARIGA TASHQI SAVDO**  
**MUNOSABATLARINI KENGAYTIRISH**

**08.00.02 –Makroiqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent– 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2025.3.PhD/Iqt1646 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengashning veb sahifasida ([www.imrs.uz](http://www.imrs.uz)) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kurbanova Dilfuza Maxsudovna**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Eshchanov Baxtiyor Ruzumbaevich**  
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Kuldasheva Zebo**  
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali**

Dissertatsiya himoyasi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.14/30.12.2019.I.84.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil «\_\_\_\_\_» soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100011, Toshkent shahri, Xadra massivi, 33a-uy. Tel.: (99871) 244-01-80, faks: (99871) 244-01-80; e-mail: [info@imrs.uz](mailto:info@imrs.uz)

Dissertatsiya bilan Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, Xadra massivi, 33a-uy. Tel.: (99871) 244-01-80, faks: (99871) 244-01-80; e-mail: [info@imrs.uz](mailto:info@imrs.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi № \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**T.M.Axmedov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**M.M.Karimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, PhD, dotsent

**H.O.Saydaliyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda globallashuv sharoitida integratsiyaning oʻrni yagona bozorning shakllanishi asosida zamonaviy texnika va texnologiyalarning oʻzaro almashinuvi, yagona sifat nazoratining oʻrnatilishi, mamlakatlararo bojxona toʻsiqlarning bartaraf etilishi va narxlarning stabillashuvi orqali iqtisodiy oʻsishning jadallashuvi sababli beqiyos va bu jarayon mamlakatlarning tashqi savdosida muhim ahamiyatga ega. Jahon statistikasiga eʼtibor qaratisa, “soʻnggi oʻn yil davomida birgina ASEANda YaIM oʻsish surʼatlari 8,4 foizni tashkil etgan boʻlsa, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (keyingi oʻrinlarda – YeOII)da soʻnggi yilda YaIMning oʻsishi 3,8 foizni tashkil qilib, mamlakatimizning YeOII mamlakatlariga soʻnggi uch yildagi oʻzaro tovar ayirboshlash hajmi 60 foizga ortgan”<sup>1</sup>.

Dunyoda integratsion jarayonlarning migratsiyaga va valyuta bozorlarining shakllanishiga, mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va investitsiyalar oqimiga taʼsiri, ularning zamonaviy shakllarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Yuqori potentsialli mehnat resurlariga ega mamlakatlarni yagona mehnat bozoriga birlashtirish, yagona valyutani muomalaga kiritish, integratsiyaning mamlakat suverenitetiga taʼsirini kamaytirish, investorlar uchun xorijiy meʼyoriy mexanizmlarni tartibga solish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda soʻnggi yillarda sohada xorijiy va mahalliy investitsiyalar oqimini oshirish orqali eksport hajmini koʻpaytirish, jumladan, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari eksporti uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, hududlar eksportini oshirish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Iqtisodiyotimizni yangi bosqichga olib chiqish uchun, eksportni yiliga kamida 30 foizga oshirib borish zarur...”<sup>2</sup> ekanligini mamlakat Prezidenti taʼkidlab oʻtdilar. Bu borada xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, uni yalpi ichki mahsulotga, qoʻshilgan qiymatga, eksportga taʼsirini chuqur oʻrganish, eksportga oʻsishi kuzatilmayotgan mahsulotlarni oʻrganish, raqobatbardosh boʻlgan mahsulot turlarini jahon bozorlaridagi reytingini yaxshilash, ularga taʼsir etuvchi omillarni kengroq tahlil qilish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-oktyabrdagi PF-6091-son “Eksport faoliyatini moliyaviy qoʻllab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2022-yil 6-apreldagi PF-97-son “Tashqi savdo faoliyati ishtirokchilarini qoʻllab-quvvatlashning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “Oʻzbekiston-2030 strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmonlari, 2021-yil 13-iyuldagi PQ-5184-son “Eksport faoliyatini moliyaviy qoʻllab-quvvatlashni yanada kuchaytirish toʻgʻrisida”, 2024-yil 14-martdagi PQ-126-son “Tashqi savdo va hududiy sanoatni rivojlantirishda tadbirkorlar birlashmalarining rolini yanada oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarorlari, 2024-yil 1-oktyabrdagi “Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi va Oʻzbekiston Respublikasi Hukumatining 2024-2026-yillarga moʻljallangan qoʻshma tadbirlar

<sup>1</sup>Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 8-may 2024-yildagi Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashi majlisidagi nutqi.

<sup>2</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 18-yanvar 2024-yildagi 2024-yilda investitsiya, eksport va xalqaro hamkorlik sohalarida amalga oshirilishi lozim boʻlgan ustuvor vazifalar yuzasidan oʻtkazilgan videoselektordagi nutqi.

rejasi” va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Xalqaro savdo nazariyasi va iqtisodiy integratsion jarayonlar rivojlanishining metodologiyasi va ustuvor yo‘nalishlari borasida xorijiy mamlakatlar olimlari E.Xeksher<sup>3</sup>, B.Olin<sup>4</sup>, G.Xaberler<sup>5</sup>, D.Salvatore<sup>6</sup>, J.Vayner<sup>7</sup>, Y.Tinbergen<sup>8</sup>, B.Balassa<sup>9</sup>, X.Jonson<sup>10</sup>, Sean Burges<sup>11</sup>, Ganeshan Wignaraja<sup>12</sup>, Pabasara Kannangara<sup>13</sup>, Peter Claeys<sup>14</sup>, Helena Sanz-Morales<sup>15</sup>, Naoyuki Yoshino<sup>16</sup>, Peter J.Morgan<sup>17</sup>, Kaliappa Kalirajan<sup>18</sup>, MDH olimlaridan N.Livensev<sup>19</sup>, A.Matisin<sup>20</sup>, A.Kireev<sup>21</sup>, Y.Shishkin<sup>22</sup>, M.Maksimova<sup>23</sup>,

<sup>3</sup> Xeksher E. “International trade and economic history”. – Massachusetts Institute of Technology, London 2006. – p.324.

<sup>4</sup> Olin B. “Interregional and international trade”. – Harvard university press, Cambridge. – 1935. – p.256.;

<sup>5</sup> Xaberler G. “Prosvetanie i depressiya” teoriticheskiy analiz siklicheskiy kolebaniy. – Cosium, Chelyabinsk. – 2005. – S.474. [file:///C:/Users/Admin/Downloads/\[Gotfrid Haberler\] Prosvetanie i depressiya Teore \(libcats.org\).pdf](file:///C:/Users/Admin/Downloads/[Gotfrid Haberler] Prosvetanie i depressiya Teore (libcats.org).pdf);

<sup>6</sup> Salvatore D. “International economics” – Fordham university, USA, 2013. [http://dl.iranidata.com/book/daneshgahi/Dominick % 20 Salvatore -International % 20 Economics \(www.Iranidata.com\).pdf](http://dl.iranidata.com/book/daneshgahi/Dominick%20Salvatore-International%20Economics(www.Iranidata.com).pdf);

<sup>7</sup> Vayner J. “The customs union issue” – New York, Carnegie Endowment for international peace, p.195.;

<sup>8</sup> Tinbergen Y. “Mathematical Models of Economic Growth”, McGraw-Hill, London – 1962. – P.43.;

<sup>9</sup> Balassa B. “The theory of economic integration” - Homewood, Ill.: R. D. Irwin-1961.;

<sup>10</sup> Jonson X. “Optimum Tariffs and Retaliation” - The Review of Economic Studies. – 1953. – Vol. 21, № 2. – P.142–153, <https://bigenc.ru/b/optimum-tariffs-and-retaliation-0056b8>;

<sup>11</sup> Burges Sean “Brazil in the World: The International Relations of a South American Giant” - Manchester University Press, 2017.;

<sup>12</sup> Ganeshan Wignaraja “Measuring competitiveness in the World’s smallest economies: Introducing the SSMECI” – Asian development bank, 2004.<https://www.adb.org/sites/default/files/publication/28345/wp060.pdf>;

<sup>13</sup> Pabasara Kannangara “The Importance of the Indian Ocean: Trade, Security and Norms” – Lakshman Kadirgamar Institute of International Relations and Strategic Studies (LKI), 2018. [https://lki.lk/wpcontent/uploads/2018/10/LKI Explainer The Importance of the Indian Ocean Trade Security and Norms Pabasara - Kannangara Adam-Collins and Barana-Waidyatilake.pdf](https://lki.lk/wpcontent/uploads/2018/10/LKI_Explainer_The_Importance_of_the_Indian_Ocean_Trade_Security_and_Norms_Pabasara_-_Kannangara_Adam-Collins_and_Barana-Waidyatilake.pdf);

<sup>14</sup> Claeys P. “Sustainability of EU fiscal policies : a panel test” – Journal of economic integration, 2007. Vol.22(1), p.112-127.

<sup>15</sup> Helena Sanz-Morales “Special Theme 2: Asian and European Economic Integration at a Crossroads” - [Journal of Economic Integration](https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/08853900701266555?NeedAccess=true), 2021. Vol.36, p.65-71.;

<sup>16</sup> Naoyuki Yoshino “Regional Economic Integration in Asia: Challenges and Recommended Policies” – Journal of economic integration, Vol.35, (1), p.1-9.;

<sup>17</sup> Peter J.Morgan “Economic Implications of Deeper South Asian Southeast Asian Integration: A CGE Approach” - SSRN Electronic Journal, January 2014, DOI: [10. 2139/ ssrn.2479801](https://doi.org/10.2139/ssrn.2479801);

<sup>18</sup> Kaliappa Kalirajan “[Regional cooperation and bilateral trade flows: an empirical measurement of resistance](https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/08853900701266555?NeedAccess=true)” - The international trade journal, Vol.1, p.85-107. [https:// www. Tandf online. com/doi/full/ 10. 1080/ 08853900701266555? Need Access=true](https://www.Tandfonline.com/doi/full/10.1080/08853900701266555?NeedAccess=true);

<sup>19</sup> Livensev N.N. “Mejdunarodnaya ekonomicheskaya integratsiya : ucheb. posobie dlya studentov, obuchayushixsya po spetsialnosti 060600 “Mirovaya ekonomika”” - Moskva: Ekonomist, 2006. – S.430.;

<sup>20</sup> Matisin A.K. “Analiz faktorov vertikalnoy integratsii” – jurnal Finansi i kredit, 22(136) 2003. – S.59-67.;

<sup>21</sup> Kireev A.P. “Mejdunarodnaya makroekonomika” – Mejdunarodnie Otnosheniya. – 2014. – S.592.;

<sup>22</sup> Shishkov Y. V. Zapadnoyevropeyskaya integratsiya: sovremennye tendentsii razvitiya i protivorechiya. – M.: Znanie. – 1980. – S.19.;

<sup>23</sup> Maksimova M. “Economic aspects of capitalist integration” - Moscow: Progress Publishers. – 1973. – p.332.;

A.Xolopov<sup>24</sup>, Y.Semenov<sup>25</sup>, A.Elyanov<sup>26</sup>, A.Libman<sup>27</sup>, V.Andrianov<sup>28</sup>, K.Astapov<sup>29</sup>, A.Barkovskiy<sup>30</sup> va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan K.Abduraxmanov<sup>31</sup>, A.Rasulev<sup>32</sup>, N.Tuxliev<sup>33</sup>, A.Qodirov<sup>34</sup>, A.Alimov<sup>35</sup>, N.Sirojiddinov, A.Vahabov<sup>36</sup>, Y.Karrieva, A.Isadjanov<sup>37</sup>, G.Xachiev<sup>38</sup>, S.Chepel<sup>39</sup>, B.Eshchanov<sup>40</sup>, M.Karimov<sup>41</sup>, H.Saydaliev<sup>42</sup>, V.Turakulov<sup>43</sup>, I.Qosimov<sup>44</sup>, S.A'zam<sup>45</sup>, N.Tolipova, D.Kurbanova<sup>46</sup>, Z.Kuldasheva<sup>47</sup> va boshqalarning ilmiy ishlarida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda xalqaro savdo operatsiyalari, eksportning iqtisodiyotda tutgan o'rni, eksport hajmini oshirish, integratsion modellarning xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi o'rni, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati va jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvining turli jihatlari o'z aksini topgan.

---

<sup>24</sup> Xolopov A. "Teoriya mejdunarodnoy trgovli" – M.: – 2000. – s.80.;

<sup>25</sup> Semenov E. "Vliyanie trgovoy voyni mejdu SShA i Kitaem na vneshneekonomicheskuyu deyatelnost EAES. Promejutochnie itogi i perspektivi" – Jurnal «Ekonomicheskie Strategii», Rubrika: «Geoekonomika» – DOI:10.33917/es-8.174.2020.16-25.;

<sup>26</sup> Elyanov A. "Razvivayushiesya strani v mirovoy ekonomike: tendensii i problemi" – Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnosheniya. - 2007., – № 2. – S.3-15.;

<sup>27</sup> Libman A. Yevraziyskaya kontinentalnaya integratsiya. - EABR, 2012. – s.43.;

<sup>28</sup> Andrianov V.D. Spetsialnie ekonomicheskie zoni v mirovoy ekonomike. Moskva: Ekon. fak. MGU, TEIS, 1998 – s.56.;

<sup>29</sup> Astapov K. Razrabotka strategii razvitiya rossiyskoy ekonomiki: teoriya i praktika. Dissertatsionnaya rabota. – M.: 2006 – s.346.;

<sup>30</sup> Barkovskiy A. Ekonomicheskie strategii stran SNG: polyarizatsiya interesov. Jurnal Problemi Prognozirovaniya. – 2003. – s.132.;

<sup>31</sup> K.Abduraxmanov. Mirovaya ekonomika. Uchebnoye posobiye. – Izdatelstko-poligraficheskii tvorcheskii dom "O'qituvchi", Tashkent. – 2006. – S.416.

<sup>32</sup> Rasulev A. "Ekonomika Uzbekistana v usloviyax integratsionnix prosessov na postsovetkom prostranstve" – jurnal "Rossiya i sovremenniy mir". – № 3. 2014. – S.157-168.;

<sup>33</sup> Tuxliev N. "Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya: rivojlanish, qonuniyatlari, xususiyatlari". Monografiya. – Toshkent: Ilm-Ziyo-Zakovat. – 2020. – 116 b.;

<sup>34</sup> Qodirov A. "[An analysis of export and import operations in Bukhara region](#)" - World science, 9(13). – p.38-40.;

<sup>35</sup> Alimov A. "O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari" – darslik, Toshkent, Uzbekiston Yozuvchilar uyushmasi «Adabiyot jamgarmasi» nashriyoti. – 2001. – 328 b.;

<sup>36</sup> Vahabov A.V. "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" darslik, Toshkent – Baktaria press, 2017. – 355 b.;

<sup>37</sup> Isadjanov A.A. "Uzbekistan: faktori makroekonomicheskoy stabilnosti i ekonomicheskogo rosta", jurnal Sovremennye aspekti ekonomiki. 1(10). 2007. – S.198—207.;

<sup>38</sup> Xachiev G.A. "Central Asia: portrait against the background of the world economy", jurnal "Economics, political sciences". – 2006. P.86.;

<sup>39</sup> Chepel S.V., Modelirovaniye ekologicheskix makrostrukturnix i sotsialnix posledstviy sokrameniya energeticheskix subsidiy (na primere Uzbekistana), «Problemi prognozirovaniya», №5. – 2023. – S.211-222.

<sup>40</sup> Eshchanov B.R. "BRI in Central Asia: Agriculture and Food Projects", Central Asia Regional Data Review 26 (2019) 1–9. , DOI:[10.13140/RG.2.2.14081.10083](#).

<sup>41</sup> Karimov M.M. Mirovie tendensii pryamix inostrannix investitsiy i prognozi potokov do 2025 goda, Ekonomika: analizi igrognosi, 2021, №3, 97-104, <https://elibrary.ru/item.asp?id=46714598>.

<sup>42</sup> Saydaliyev H. Kasimov I. [Foreign direct investment and renewable energy: examining the environmental Kuznets curve in resource-rich transition economies](#). Journal Renewable Energy, -2023. – p.301-310.

<sup>43</sup> Turakulov V. «Book Review: The Central Asian Economies in the Twenty-First Century: Paving a New Silk Road», Journal of Eurasian Studies. – 2021. – DOI:[10.1177/18793665211066317](#).;

<sup>44</sup> Qosimov I. "The Right Sequence for Uzbekistan's Trade Integration: Should it join the WTO first or begin with EAEU membership?", jurnal "한국무역학회 학술대회". – 2023. – p.85-101.;

<sup>45</sup> A'zam S. "Analiz texnologichnosti strukturi vneshney trgovli Uzbekistana", Economic Analysis: Theory and Practice – 2017. – vol. 16, iss. 7. – pp. 1217–1230.;

<sup>46</sup> Kurbanova D.M. "Konkurentosposobnost ekonomiki Uzbekistana v usloviyax liberalizatsii vneshneekonomicheskoy deyatelnosti", Ekonomika i finansi. Tashkent. – 2010. – №9. – S. 62-68.

<sup>47</sup> Kuldasheva Z. [Natural resources tax volatility and economic performance: Evaluating the role of digital economy](#). – Journal Resources Policy. – 2022. – p.102510.

Yuqorida ta'kidlangan olimlarning ishlarida xalqaro iqtisodiy integratsiyaning vujudga kelishi, bosqichlari va xususiyatlari, shart-sharoitlari, rivojlanishi, milliy iqtisodiyot uchun samarasi va uslubiy jihatlari jahon mamlakatlari misolida o'rganib chiqilgan. Ammo, O'zbekiston Respublikasining integratsion jarayonlaridagi ishtirokini baholash, yutuq va kamchiliklari hamda integratsion jarayonlardagi milliy raqobatbardoshlikning makroiqtisodiy jihatlari to'liq yoritib berilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq "Iqtisodiyotda bozor mexanizmlarini va raqobatni rivojlantirish, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish asosida biznes muhitini yaxshilash hamda xalqaro reyting va indekslarda mamlakat mavqeiini oshirish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash" nomli ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekistonning Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeOII) mamlakatlari bilan eksport zanjirining samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

eksport zanjiri samaradorligini oshirish va tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishga oid ilmiy va nazariy qarashlarni umumlashtirish;

O'zbekistonning YeOII mamlakatlari bilan tashqi savdo munosabatlari dinamikasi, tovar aylanmasi tarkibi, raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari va eksport zanjiridagi mavjud tendensiyalarni tahlil qilish;

eksport zanjirida mavjud muammo va to'siqlarni (logistika, sertifikatlash, texnik reglamentlar, standartlar va boshqa cheklovchi omillarni) aniqlash hamda ularning tashqi savdoga ta'sirini baholash;

YeOII mamlakatlari va boshqa integratsiya birlashmalari tajribasi asosida eksport zanjiri samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan ilg'or amaliyotlarni o'rganish va ulardan milliy iqtisodiyot sharoitida foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish;

O'zbekistonning YeOII mamlakatlari bilan tashqi savdosiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellar orqali baholash;

xalqaro texnik standartlar, reglamentlar va sertifikatlash tizimlariga moslashishning milliy eksport salohiyati va tashqi savdo aloqalariga ta'sirini tadqiq etish.

O'zbekistonning YeOII mamlakatlari bilan tashqi savdo munosabatlarini kengaytirish va eksport zanjiri samaradorligini oshirishga qaratilgan institutsional, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekiston Respublikasining Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeOII) mamlakatlari bilan savdo aloqalari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish asosida milliy raqobatbardoshlikni oshirishning makroiqtisodiy jihatlari bo'yicha yuzaga keladigan munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy va dinamik tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, statistik

kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish va guruhlash, umumlashtirish ko'rsatkichlarini hisoblash, iqtisodiy indekslar, ekonometrik tahlil va prognozlash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

qiyosiy ustunlik (RCA) indeksi asosida YeOII standartlariga mos ravishda tayyorlangan organik qishloq xo'jalik (olma, uzum, o'rik, qovun va pomidor), to'qimachilik (paxta ip-kallavasi, trikotaj futbolklar va sport kiyimlari) va kimyo mahsulotlari (ammoniy nitrat, xlorat va karbonatlar)ni eksportga yo'naltirish orqali ularni ishlab chiqarish hajmini 32,5 foizga ko'paytirish imkoniyati asoslangan;

YeOII mamlakatlariga eksportni ko'paytirish maqsadida eksportbob mahsulotlarni ekin ekish, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash, sotish zanjirlarini to'la qamrab olgan uch yillik dastur ishlab chiqish taklif etilgan;

sifatni jahon standartlari talablariga moslash va milliy brendlarni shakllantirish asosida sabzavot va mevalar po'stlog'i hamda danagini qayta ishlash orqali fitosanitar ruxsatnomalarga ega eksport mahsulot turlarini 25 tadan 30 taga yetkazish taklifi ishlab chiqilgan;

O'zbekistonning milliy raqobatbardosh salohiyatidan kelib chiqqan holda YeOII mamlakatlariga eksport hajmini 2030-yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

RCA indeksi tahlili asosida organik qishloq xo'jaligi, to'qimachilik va kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyatlari aniqlangan;

mahsulotlarni yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va sotish bosqichlarini ifodalovchi maqsadli dastur ishlab chiqilgan;

jahon standartlari talablarini hisobga olgan holda sabzavot va mevalarning po'stlog'i va danagini qayta ishlash hisobiga fitosanitar ruxsatnomalarga ega mahsulot turlari sonini ko'paytirish yo'llari asoslangan;

savdoni to'ldiruvchi indeksi (TCI - Trade Complementarity Index) va qiyosiy eksport ko'rsatkichlari indeksi (CEP - Comparative Export Performance), aniqlangan qiyosiy ustunlik indeksi (RCA - Revealed Comparative Advantage) hisoblangan;

O'zbekistonning YeOII mamlakatlariga eksport hajmining maqsadli parametrlari asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** tadqiqot natijalarining tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi, UNCTAD, TRADEMAP, COMTRADE xalqaro tashkilotlari rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekistonning integratsion birlashmalarda ishtiroki orqali eksport salohiyatini oshirish va raqobatbardoshligini baholash orqali kuchli va nisbatan kuchsiz sohalarni ajratishda, maxsus ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda, ilmiy-o'quv adabiyotlarini yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi pozitsiyasini yaxshilash va integratsion birlashmalardagi faoliyatini samarali amalga oshirishga oid qonun va qonunosti hujjatlarni ishlab chiqish, eksport salohiyatini oshirish va integratsion faoliyat bo'yicha yo'riqnomalarni takomillashtirish, tarmoqlar xususiyatidan kelib chiqqan holda qo'llab-quvvatlashga muhtoj sohalarga moliyaviy ko'mak berish jarayonlari, shakl va vositalarini qulaylashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Eksport zanjiri samaradorligini oshirish orqali O'zbekistonning YeOII mamlakatlariga tashqi savdo munosabatlarini kengaytirish asosida ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

Yuqori eksport qiymatiga ega organik qishloq xo'jalik - olma, uzum, o'rik, qovun va pomidor mahsulotlarini qayta ishlab, ularga xalqaro standartlarga mos elektron fitosanitar va sifat sertifikatlarini berish orqali istiqbolli bozorlarga eksportga yo'naltirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-apreldagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish hamda qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-136-son qarori bilan tasdiqlangan dasturni hamda (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 27-avgustdagi 05/06-04-499-son ma'lumotnomasi) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-apreldagi PQ-146-son qarorida nazarda tutilgan "Made in Uzbekistan" milliy brendi asosida mahsulotlar eksportini oshirish chora-tadbirlari (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil 2-apreldagi 05-78-1-00383-son ma'lumotnomasi)ni ishlab chiqishda ma'lumot sifatida foydalanilgan. Natijada, 2025-yil yarim yilligida meva va sabzavot mahsulotlari eksporti 32,5 foizga oshirilishiga erishilgan;

YeOII mamlakatlariga eksportni ko'paytirish maqsadida eksportbob mahsulotlarni ekin ekish, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash, sotish zanjirlarini to'la qamrab olgan uch yillik dastur ishlab chiqish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-apreldagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish hamda qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-136-son qarori bilan tasdiqlangan "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni sanoatlashtirish, qayta ishlash va eksport hajmlarini oshirish bo'yicha" chora-tadbirlar dasturini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 27-avgustdagi 05/06-04-499-son ma'lumotnomasi). Natijada, YeOII mamlakatlariga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksportini amalga oshirishda yagona zanjirni shakllantirish orqali eksport hajmini ko'paytirishga erishilgan;

sifatni jahon standartlari talablariga moslash va milliy brendlarni shakllantirish asosida sabzavot va mevalar po'stlog'i hamda danagini qayta ishlash orqali fitosanitar ruxsatnomalarga ega eksport mahsulot turlarini 25 tadan 30 taga yetkazish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-apreldagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish hamda qayta

ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-136-son qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 27-avgustdagi 05/06-04-499-son ma'lumotnomasi). Natijada, istiqbolli bozorlar soni 8 ta mamlakatga va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar turi 30 tagacha ko'paygan;

O'zbekistonning milliy raqobatbardosh salohiyatidan kelib chiqqan holda YeOII mamlakatlariga eksport hajmini 2030-yilga qadar prognoz parametrlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-apreldagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish hamda qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-136-son qarorida belgilangan 2025-2026-yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini oshirish hamda qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlarini belgilashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 27-avgustdagi 05/06-04-499-son ma'lumotnomasi). Natijada, tadqiqotda aniqlangan omillar ta'sirida eksport hajmi 2026-yilda 20 foizga ko'payishi ko'zda tutilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida, 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va ijobiy baholangan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola: 6 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 141 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, unda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning aprotatsiyasi, e‘lon qilinishi va tarkibiy tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Mamlakatni iqtisodiy integratsiya jarayonlarida ishtirokining ilmiy uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida integratsiya jarayonlarining makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashdagi o‘rni va uning mamlakat raqobatbardoshligiga ta‘sirini baholash uslubi, raqobatbardoshlikni oshirishda integratsiyani rivojlantirishning xorij tajribasi ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan. Xalqaro iqtisodiy integratsiya (XII) atamasi XX asrning 30-yillarida nemis va shved iqtisodchilarining asarlarida birinchi marta ishlatilgan. Integratsiya so‘zi lotin tilida “integratio” so‘zidan olingan bo‘lib, “qo‘shilib ketish”, “birlashish”, “qismlarning bir butunlikka aylanishi” degan ma‘noni anglatadi.

Tadqiqotda barqaror iqtisodiy o‘shish va tizimli raqobatbardoshlikni iqtisodiy integratsiya jarayonlarini kuchaytirish orqali ta‘minlash mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan. Iqtisodiy va siyosiy institutlarning optimal o‘zaro ta‘siri bilan ta‘minlangan tizimli integratsiyagina ijtimoiy taraqqiyot mantig‘ini aks ettiradi. Aynan mana shu mantiq tizimli iqtisodiy integratsiyani, uning mazmunini shakllantiradi, iqtisodiyotning funksional tuzilmasi va uning rivojlanish yo‘nalishini tashkil etuvchi va oldindan belgilab beruvchi vositalar majmuini aniqlaydi. Barqaror iqtisodiy o‘shishga yordam beruvchi tizimli integratsiyani amalga oshirish tamoyili davlat iqtisodiy tizimining yaxlitligini va uni tashkil etuvchi ishlab chiqarish va iste‘mol zanjirlarining ketma-ketligini ta‘minlashdan iborat. Ushbu tamoyilga muvofiq, alohida iqtisodiyot va uning tarmoqlari o‘rtasida yashil, raqamli va innovatsion omillarning iqtisodiy rivojlanishga ta‘sirining ortib borayotgan natijasini ta‘minlaydigan munosabatlarni rivojlantirish lozim (1-jadval).

Xalqaro integratsiya bevosita raqobatbardoshlik tushunchasi bilan bog‘liq. Ushbu bog‘liqlikni mohiyatini ko‘plab olimlar o‘z tadqiqotlarida bayon qilganlar. Muallif fikricha xalqaro raqobatbardoshlik “mamlakatning xalqaro ixtisoslashuvga muvofiq resurslardan samarali foydalanish orqali eksport salohiyatini oshirish va yakuniy maqsad sifatida aholi turmush darajasini o‘shishdan iborat. Raqobatbardoshlik deganda milliy miqyosda yuqori mahsuldorlikka erishish, inson kapitalini oshirish, kapital va boshqa ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish qobiliyati tushuniladi. Nazariy jihatdan, raqobatbardoshlik konsepsiyasi odatda qiyosiy ustunlik nazariyasi bilan bog‘liq. Milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligi darajasi va sifati iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi. Tadqiqotda mamlakatda xalqaro raqobatbardoshlikning shakllanishi, holati va rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi asosiy omillarni to‘rt guruhga ajratish mumkin (tizimli, marketing, tashqi va ichki) orqali tahlil qilish mumkinligini ko‘rsatib o‘tilgan. Korxonalarining raqobatbardoshligini rivojlantirish negizida marketing

omillari yotadi, chunki ular uning yoʻnalishiga mohiyatan taʻsir koʻrsatadi. Milliy va xalqaro bozorlardagi korxonalarni raqobatbardoshligi ularning turlari va salohiyatiga bogʻliq.

**1-jadval.**

**Iqtisodiy integratsiya tushunchasi boʻyicha turli ilmiy qarashlar**

Muallif (Maktab)	Taʻrif	Metodologik asoslar	Institutsional jarayonlar	Kamchiliklar (cheklovlar)
<b>Bela Balassa (1961)</b>	Integratsiya – iqtisodiy ittifoqqa olib boruvchi bosqichli jarayon boʻlib, erkin savdo zonasidan toʻliq iqtisodiy birlikkacha boʻlgan aloqalarni oʻzida mujassamlashtiradi.	Neoliberal qarashlar, ratsional iqtisod	Erkin savdo → Bojxona ittifoqi → Umumiy bozor → Valyuta ittifoqi → Iqtisodiy ittifoq	Ijtimoiy, siyosiy va institutsional tuzilmalarni kam qamrab oladi.
<b>Jacob Viner (1950)</b>	Integratsiya – savdo burilishi va savdo yaratilishi orqali iqtisodiy foyda berishi mumkin boʻlgan hududiy aloqa	Neoklassik nazariyalar, samaradorlik asosi	Bozor foydasini aniqlash, savdo foydasi hisoboti	Tashqi ijtimoiy, siyosiy omillar inobatga olinmaydi.
<b>Paul Craig &amp; Gráinne de Búrca (2003)</b>	Integratsiya – siyosiy, huquqiy va institutsional muvofiqlashuv jarayoni, ayniqsa Yevropa Ittifoqi misolida	Neoinstitutsional yondashuv	Qonunchilik, boshqaruv, inson huquqlari integratsiyasi	Faqat Yevropa kontekstida samarali, boshqa mintaqalarga moslashishi qiyin
<b>Frankel &amp; Rose (1997)</b>	Valyuta ittifoqlari va iqtisodiy integratsiya oʻzaro bogʻliq, umumiy pul birligi savdo oqimini kuchaytiradi.	Empirik tahlil, iqtisodiy regressiyalar	Valyuta barqarorligi, umumiy pul siyosati	Milliy mustaqillikka boʻlgan taʻsiri yetarli baholanmagan.
<b>Mattli (1999)</b>	Integratsiya – milliy manfaatlar mos kelganda va institutlar samarali ishlagandagina muvaffaqiyatli boʻladi.	Institutsionalizm, manfaatlar, konfliktlari	Liderlik, institutsional tartib va hamjihatlik	Siyosiy omillar koʻproq oʻrganiladi.

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Raqobatning rivojlanishida tashqi omillar alohida oʻrin tutadi. Ularning taʻsiri turli koʻrinishga ega. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro savdoning tartiblari va qoidalari kompaniya va davlatlar uchun majburiydir. Korxonalarning raqobatbardosh qobiliyatiga taʻsir qiluvchi ichki omillar ham muhim ahamiyatga ega. Kapital uskunalar, texnologik baza va moliyaviy quvvat bilan inson kapitali ayniqsa muhimdir, chunki u hamma narsani harakatga keltiradi va tartibga soladi. Jahonda jadallashib borayotgan globallashuv va integratsiya jarayonlarining oʻzaro taʻsiri dialektikasi shuni koʻrsatadiki, bir tomondan, integratsiya birlashmalarini yaratish globallashuvning salbiy oqibatlariga, ayniqsa jahon iqtisodiy tizimining beqarorligi sharoitida kuchayib borayotgan tabiiy reaksiya hisoblansa, ikkinchi tomondan, bu global sheriklikning yaxlit tizimini (integratsiya birlashmalari oʻrtasida) yaratishga qaratilgan obyektiv tendensiyaning aniq koʻrinishidan iborat.

Integratsiya jarayonlarini baholashda koʻplab xalqaro tashkilotlar, jumladan Jahon banki, Yevroosiyo taraqqiyot banki, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga (YeOII) aʻzo mamlakatlarning ilmiy institutlari, shu jumladan, ushbu integratsiya birlashmasining ishtirokchilari turli xil ishlanmalarni amalga oshirmoqdalar. Ammo, integratsiya birlashmalari va ularni tashkil etuvchi aʻzo mamlakatlar milliy iqtisodiyotlarining iqtisodiy oʻsishiga turli omillarning hissasini baholashga qaratilgan ilmiy izlanishlar yetarli darajada emas. Tadqiqotda yuqorida qayd etilgan

fikrlar doirasida integratsion shakllanishlarning, xususan, ularni tashkil etuvchi milliy iqtisodiyotlarning klassik o‘shish omillari (tashqi va o‘zaro savdo, ichki talabning asosiy tarkibiy qismlari) hissasini miqdoriy baholash va sifat jihatidan tahlil zaruriyati asoslangan.

Mamlakatlarning savdo-iqtisodiy ittifoqlarga qo‘shilishining iqtisodiy oqibatlari bilan bog‘liq masalalar, muallif fikriga ko‘ra, iqtisodiy adabiyotlarda ancha tor doirada o‘rganilgan. Biroq, bu oqibatlarni baholash muayyan birlashmaga qo‘shilish niyatida bo‘lgan davlatlar uchun birinchi qadamdir. Xorijiy mamlakat va mahalliy olimlar va tadqiqotchilar tomonidan qilingan ishlarni tahlil qilib, iqtisodiy integratsiya va raqobatbardoshlik tushunchalariga muallif ta‘rifi berildi. Muallif ta‘rifiga ko‘ra iqtisodiy integratsiya — bu geoiqtisodiy makon ichidagi davlatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, kapital, texnologiya va mehnat resurslarining erkin harakatlanishiga sharoit yaratish orqali umumiy institutsional, normativ-huquqiy va infratuzilmaviy muvofiqlashuv jarayoni bo‘lib, u ishtirokchi mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy bog‘liqlikni chuqurlashtirish, bozor samaradorligini oshirish va tashqi raqobatga nisbatan kollektiv barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan ko‘p bosqichli dinamik jarayondir. Milliy raqobatbardoshlik — bu mamlakatning global va mintaqaviy bozorlarda ustun pozitsiyani egallashi, iqtisodiy resurslarni samarali ishlatishi, innovatsion imkoniyatlarini to‘liq safarbar qilishi va institutsional muhit orqali barqaror rivojlanishni ta‘minlay olishiga asoslangan, ichki va tashqi bozordagi talablarga tez moslashuvchanlikka ega bo‘lgan kompleks iqtisodiy salohiyatidir. U nafaqat eksport hajmi yoki ishlab chiqarish quvvati bilan, balki bilim, texnologiya, ta‘lim sifati, inson kapitali va davlat boshqaruvining samaradorligi bilan belgilanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, hozirgi kungacha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarida qilingan tahlillar umumiy bo‘lib, aynan YeOIIga O‘zbekistonning a‘zoliqi mamlakat iqtisodiyotiga, jumladan umumiy eksport qiymatlariga qay darajada ta‘sir etishi to‘liq tahlil etilmagan. Shu maqsadda, tadqiqot ishida ittifoqqa a‘zolik O‘zbekiston uchun qay darajada ta‘sir etishini prognoz qilish uchun umumiy eksport va unga ta‘sir etuvchi omillardan, shuningdek, tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy va dinamik tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, statistik kuzatish, ma‘lumotlarni yig‘ish va guruhlash, umumlashtirish ko‘rsatkichlarini hisoblash, iqtisodiy indekslar, ekonometrik tahlil va prognozlash usullaridan, RCA, TCI, CEP indekslarida, DID va gravitatsion modellardan foydalanilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonni iqtisodiy integratsiya jarayonlarida ishtirokining hozirgi holati va uni milliy raqobatbardoshlikka ta‘sirini baholash”** nomli ikkinchi bobida integratsion jarayonlarning bosqichlari keltirilgan, O‘zbekistonning ushbu jarayonlarda ishtirokining iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlillari amalga oshirilgan hamda tegishli xulosalarga kelingan.

Tadqiqotda O‘zbekistonning YeOII mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalari tahlil qilingan. O‘zbekiston uchun YeOII da kuzatuvchi mamlakat sifatida o‘zaro hamkorlikning aniq va izchil natijalariga erishishni ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasiga Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi–davlat maqomi 2020-yil 11-dekabr kuni YeIHK (Yevroosiyo Iqtisodiy Hamkorlik

Kengashi) qarori bilan berilgan. O‘zbekiston kuzatuvchi maqomi davrida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘zgarish tendensiyasi kuzatilgan. Ushbu tahlil natijalariga ko‘ra, 2020–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekistonning YeOII mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi doimiy o‘shish sur‘atini namoyon qilgan. 2020-yilda pandemiya va global iqtisodiy inqirozlarga qaramay, savdo hajmi 9.83 mlrd dollarni tashkil qilgan. 2022-yilga kelib, bu ko‘rsatkich 15.7 mlrd dollarga yetdi, ya‘ni 2 yilda deyarli 60 foiz o‘shish kuzatilgan. 2024-yilda savdo aylanmasi 16.2 mlrd dollarga yetgan.

Xalqaro tajribada ma‘lum bir mamlakatning mahsulot yoki xizmatlarning ma‘lum bir sinfidagi nisbiy afzalligi yoki kamchiliklarini hisoblash uchun aniqlangan qiyosiy ustunlik (RCA) indeksidan foydalaniladi. Ushbu indeks quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$RCA = \frac{\ln\left(\frac{X_{iB}}{X_B}\right)}{\left(\frac{X_{iA}}{X_A}\right)}, (2)$$

Bu yerda:  $X_{iB}$ - O‘zbekistonning  $i$  mahsulot bo‘yicha YeOIIga eksporti;  $X_B$ - O‘zbekistonning YeOIIga umumiy eksporti;  $X_{iA}$ - raqib mamlakatning  $i$  mahsulot bo‘yicha YeOIIga eksporti;  $X_A$ - raqib mamlakatning YeOIIga umumiy eksporti.

Aniqlangan qiyosiy ustunlik indeksi natijalariga ko‘ra, “Don va don mahsulotlari” bo‘yicha O‘zbekiston Armanistonga nisbatan sezilarli darajada qiyosiy ustunlikka ega. “Sabzavotlar, sabzavot ildizi va undan tayyorlangan hamda konservalangan mahsulotlari” bo‘yicha O‘zbekiston 2016-yilda YeOII a‘zo mamlakatlarga nisbatan yuqori qiyosiy ustunlikka ega bo‘lib, 2023-yilga qadar bu ko‘rsatkich pasayib borgan. “Meva va yong‘oqlar, yangi va quritilgan” va “Ipak” mahsulotlari bo‘yicha Rossiyaga nisbatan eng yuqori qiyosiy ustunlikka erishgan bo‘lsa, “Noorganik moddalar” bo‘yicha Armanistonga nisbatan qiyosiy ustunligi yuqori, ammo Qozog‘istonga nisbatan ushbu ko‘rsatkich past, ya‘ni Qozog‘istonning qiyosiy ustunligi yuqori<sup>48</sup>.

Qiyosiy ustunlikni belgilovchi ko‘rsatkichlardan yana biri qiyosiy eksport ko‘rsatkichlari (CEP) bo‘lib, Balassa indeksining o‘zgartirilgan versiyasi hisoblanadi, quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$CEP = \frac{\ln\left(\frac{X_{iB}}{X_B}\right)}{\left(\frac{X_{iA}}{X_A}\right)}; (3)$$

Bu yerda:  $X_{iB}$  – B mamlakatning  $i$  mahsulot eksporti;  $X_B$  – B mamlakatning umumiy eksporti;  $X_{iA}$ -  $i$  mahsulotning umumiy jahon eksporti miqdori;  $X_A$ - umumiy jahon eksporti.

Hisoblash natijalariga ko‘ra aniqlangan qiyosiy eksport ko‘rsatkichi “Don va don mahsulotlari” bo‘yicha 2016-yilda Belarus, 2017–2018-yillar davomida Rossiya, 2019–2023-yillar davomida esa O‘zbekiston eksport ustunligiga erishgan.

<sup>48</sup> Sh.B.Ashurova, I.Qosimov. - Aniqlangan qiyosiy ustunliklar va raqobatbardoshlik: Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo bo‘lishning O‘zbekistonning tashqi savdo ko‘rsatkichlariga ta‘siri. Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar, ISSN: 2181-0567, 13 (19), iyul-sentyabr, 2022, Toshkent, 47-64 b.

“Sabzavotlar, sabzavot ildizi va undan tayyorlangan hamda konservalangan mahsulotlar” eksportida 2016 va 2019-yillarda O‘zbekiston ustunlikda bo‘lsa, 2017–2018 va 2020-yillarda Armaniston yetakchilikni qo‘lga kiritgan. Bu yetakchilik muallif tomonidan yuqorida qayd etilganidek, konservalangan mahsulotlar hisobiga ortgan. “Meva va yong‘oqlar, yangi va quritilgan” eksportida YeOII mamlakatlari orasida yaqqol ustunlik O‘zbekistonga tegishli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. “Ipak” mahsulotlari eksportida ham yaqqol ustunlikka erishilgan. “Noorganik moddalar” eksportida Rossiya yetakchi o‘rinda. “Radioaktivlar va unga tegishli materiallar” eksportida mos ravishda 2016–2023-yillar davomida Qozog‘iston va O‘zbekiston birinchi va ikkinchi o‘rinlarni egallagan<sup>49</sup>.

Indekslar asosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yuqori raqobatbardoshlikka ega mahsulotlar guruhi asosan qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik va kimyo mahsulotlarini tashkil qilmoqda. Natijada organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, to‘qimachilik va kimyo mahsulotlarining yuqori eksport potensialidan foydalangan holda, ishlab chiqarish hajmini 32.5 foizga oshirish imkoniyatiga ega ekanligini xulosalash mumkin.

Savdoni to‘ldiruvchi indeks – bu o‘zaro bog‘liqlik indeksining bir turi bo‘lib, bir mamlakatning eksport modeli ikkinchisining import modeliga qanchalik mos kelishini belgilaydi, quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$TCI = \left( 1 - \frac{\left( \frac{\left( \frac{M_i}{M_t} \right)}{I_{exp}} \right)}{Tot_{exp}} \right) * 100; (4)$$

Bu yerda:  $M_i$  – M mamlakatning i mahsulot bo‘yicha importi;  $M_t$  – M mamlakatning umumiy importi;  $I_{exp}$  – i mamlakatning i mahsulot bo‘yicha eksporti;  $Tot_{exp}$  – i mamlakatning umumiy eksporti.

Ushbu formula orqali hisoblangan natijalarga ko‘ra, O‘zbekistonning eksport qiladigan mahsulot turlari YeOII mamlakatlari import qiladigan mahsulotlariga to‘la mos keladi (2-jadval).

Jadvalda 2016–2023-yillar davomida savdoni to‘ldiruvchi indeksi orqali aniqlangan 13 ta mahsulot guruhi bo‘yicha test natijalari keltirilgan. Test natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston tuxum, sabzavot, meva, ziravorlar, to‘qimachilik iplari, paxta va trikotaj matolar, mis kabi mahsulotlar guruhlari bo‘yicha eksport ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yuqori. Bu shuni anglatadiki, O‘zbekiston ushbu mahsulotlarni eksport qilishda YeOII ga a‘zo davlatlardan farqli o‘laroq ustunlikka ega<sup>50</sup>.

<sup>49</sup> Sh.B.Ashurova, I.Qosimov. - Aniqlangan qiyosiy ustunliklar va raqobatbardoshlik: Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo bo‘lishning O‘zbekistonning tashqi savdo ko‘rsatkichlariga ta‘siri. Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar, ISSN: 2181-0567, 13 (19), iyul-sentyabr, 2022, Toshkent, 47-64 b.

<sup>50</sup> Sh.B.Ashurova, I.Qosimov. - Aniqlangan qiyosiy ustunliklar va raqobatbardoshlik: Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo bo‘lishning O‘zbekistonning tashqi savdo ko‘rsatkichlariga ta‘siri. Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar, ISSN: 2181-0567, 13 (19), iyul-sentyabr, 2022, Toshkent. 47-64 b.

**2016-2023-yillarda qiyosiy eksport ko'rsatkichlari indeksi orqali aniqlangan  
mahsulot guruhlari**

<b>Mahsulot turi</b>	<b>O'zbekiston</b>	<b>YeOII</b>	<b>O'rtacha farq</b>
Tuxum	3.186	1.348	1.837*
Bug'doy	1.949	3.928	-1.979
Sabzavotlar	7.362	3.486	3.875**
Mevalar	8.951	0.960	7.990***
Ziravorlar	3.773	0.083	3.689***
O'g'itlar	5.292	9.525	-4.233
Teri	4.093	1.910	2.183
To'qimachilik iplari	29.565	0.618	28.947***
Paxta matosi	6.552	0.246	6.305***
Trikotaj matosi	3.810	0.318	3.492***
Temir va po'lat panjaralar	3.068	1.912	1.156
Mis	11.444	2.799	8.645***
Kiyim aksessuarlari	0.877	1.211	-0.334

\*\*\*, \*\*, va \* mos ravishda  $p$  qiymat  $< 1\%$ ,  $p$  qiymat  $< 5\%$  va  $p$  qiymat  $< 10\%$  ni ifodalaydi.

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu tahlil asosida mevalar va sabzavotlarning po'stlog'i hamda danagini ham qayta ishlab ularni eksportga yo'naltirish ham mumkinligi aniqlandi. Qayta ishlangan mahsulotlarga fitosanitar guvohnomalarni olish orqali eksport mahsulotlari turlarini kengaytirish imkoniyati yaratiladi. Olma, anor, yong'oq kabi yuqori eksport qiymatiga ega mahsulotlarni qayta ishlash orqali mavjud fitosanitar ruxsatnomali mahsulotlar turini 25 tadan 30 taga yetkazish mumkin bo'ladi.

Tadqiqotda eksportga ta'sir qiluvchi omillar DID modeli orqali aniqlangan (3-jadval). DID modeli turli omillar va eksport o'rtasidagi bog'lanishni ko'rsatadi. Ushbu model orqali, MDH davlatlarining YeOII ga a'zolikdan oldingi va keyingi davrlarini taqqoslagan holda qanday o'zgarish bo'lganligini aniqlanish mumkin. Mos ravishda 6 ta davlat nazorat va 5 davlat eksperiment guruhlariga ajratib olindi. Regressiya natijalari tahliliga ko'ra, did (1vs0), lngdppc (GDP per capita) va lnexch ning ta'siri ijobiy, lnimp, lnpop va lnfdi ta'siri ahamiyatsiz. Ushbu did (1vs0) ko'rsatkichi 0.233 koeffitsiyentga ega bo'lib 95 foizlik ahamiyatli darajasida (0.437)  $r$  qiymat 0.03 ni tashkil qilib, YeOII ga a'zo bo'lmagan davrga nisbatan a'zolik davridagi farq 0.233 ga o'zgarganligini va bu davlatlarga ijobiy ta'sir etganligini ifodalaydi. Bu degani, ittifoqqa a'zolik davlatlar uchun samarali bo'lgan va eksport sezilarli darajada o'sgan. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad lngdppc (GDP per capita) 1.434 ni tashkil qilib, yuqori aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad iqtisodiy farovonlik, sifatli ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlari ko'rsatishni anglatadi. Bu natija, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi omillarni, masalan, ta'lim va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashni ifodalaydi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadning har 1 foizga oshishi a'zolikdan keyingi davrda davlatlar eksportining 1.434 foiz oshishiga sabab bo'lgan. Valyuta kursi lnexch -0.107 valyuta kursining pasayishi, eksportga ijobiy ta'sir ko'rsatib, eksport

qiymatini oshishiga, valyuta kursining oshishi esa eksport qiymatining pasayishiga olib kelgan.

**3-jadval.**

**Eksport va unga taʼsir etuvchi omillarni DID modeli orqali aniqlash**

Difference-in-differences regression	
Variables	Model 1
DID	0.233 (0.092)
Lnimp (Imports)	0.234 (0.180)
Lngdppc (Economic growth)	1.434 (0.425)
Lnpop (Population)	1.093 (0.801)
Lnexch (Exchange rate)	-0.107 (0.047)
Lnfdi (Foreign direct investment)	-0.008 (0.020)
Constant	24.238 (14.264)
Time fixed effects	Yes
Observations	279
R-squared	0.83
F-statistic	512.9
Note: standard errors are in parentheses. *** and * indicate statistical significance at the 1% and 10% levels, respectively.	

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

MDH davlatlari uchun gravitatsion modelni qoʻllab quyidagi regressiya natijalari olingan (4-jadval). Natijalarga koʻra, maʼlumot bazalariga mos ravishda 6 xil modellar qilingan. Dastlabki model COMTRADE maʼlumot bazasi asosida tahlil qilingan boʻlib, bunda natijalar eksport qiluvchi mamlakatlarga nisbatan olingan. Eksport qiluvchi mamlakatlarning aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan YaIM  $\ln\_gdpcap\_o$  mamlakat iqtisodining eksport hajmiga ijobiy taʼsir koʻrsatishini ifodalaydi, yaʼni har bir 1 foizga YaIM oshishi savdo hajmini 0.663 ga oshiradi. Bu eksport qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishini ifodalaydi, isteʼmol imkoniyatlarini kengaytiradi. Keyingi koʻrsatkich eksport qiluvchi mamlakatlar aholi soni  $\ln\_pop\_o$  ning ortishi eksport hajmini 1.433 ga oshiradi. Bu isteʼmol bozorining kengayishini va ichki talabning oshishini koʻrsatadi. Mamlakatlar orasidagi masofa  $\ln\_dist$  (-1.898) koʻrsatkichi oʻzaro masofa eksport hajmiga salbiy taʼsir koʻrsatishini ifodalaydi. Har bir 1 foiz masofa oshganda eksport hajmi 1.898 ga kamayadi. Bu transport xarajatlari va savdo toʻsiqlarining masofaga bogʻliqligi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, chegaradosh mamlakatlar va umumiy madaniyatni ifodalovchi koʻrsatkich contig (0.808) chegaradosh mamlakatlar oʻrtasidagi savdo aloqalari kuchayishini, bu esa hududiy integratsiyani va savdo imkoniyatlarini oshirishi bilan tavsiflanadi.

**4-jadval**

**Gravitatsion model asosida aniqlangan regressiya natijalari**

	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)
--	-----	-----	-----	-----	-----	-----

VARIABLES	Comtrade_O	Comtrade_D	Trade_BACI	ManTrade_BACI	IMF_Trade_O	IMF_Trade_D
<i>ln_gdpcap_o</i>	0.663*** (0.0223)	0.625*** (0.0170)	0.718*** (0.0174)	0.641*** (0.0172)	0.547*** (0.0185)	0.577*** (0.0172)
<i>ln_gdpcap_d</i>	0.694*** (0.0126)	0.842*** (0.0114)	0.801*** (0.0110)	0.715*** (0.0108)	0.663*** (0.0116)	0.767*** (0.0113)
<i>ln_pop_o</i>	1.444*** (0.0168)	1.480*** (0.0146)	1.408*** (0.0146)	1.333*** (0.0143)	1.477*** (0.0154)	1.457*** (0.0146)
<i>ln_pop_d</i>	0.871*** (0.0110)	1.137*** (0.00917)	1.010*** (0.00907)	0.965*** (0.00902)	0.870*** (0.0100)	1.115*** (0.00895)
<i>ln_dist</i>	-1.723*** (0.0269)	-2.050*** (0.0232)	-2.009*** (0.0234)	-1.816*** (0.0230)	-1.777*** (0.0248)	-2.012*** (0.0232)
<i>Contig</i>	1.120*** (0.0962)	0.783*** (0.0914)	0.644*** (0.0916)	0.831*** (0.0897)	0.905*** (0.0858)	0.567*** (0.0853)
<i>Comcol</i>	2.140*** (0.0711)	2.328*** (0.0652)	1.921*** (0.0646)	1.877*** (0.0635)	1.982*** (0.0612)	2.313*** (0.0601)
<i>comlang_off</i>	2.028*** (0.212)	2.110*** (0.212)	2.166*** (0.224)	2.443*** (0.218)	2.047*** (0.205)	2.125*** (0.205)
<i>eaeu_o</i>	0.329*** (0.0678)	0.760*** (0.0628)	0.722*** (0.0595)	0.792*** (0.0585)	0.805*** (0.0653)	0.646*** (0.0618)
<i>eaeu_d</i>	0.794*** (0.0575)	1.041*** (0.0489)	1.107*** (0.0471)	0.931*** (0.0464)	1.091*** (0.0525)	0.985*** (0.0488)
<i>Constant</i>	-1.811*** (0.281)	-2.504*** (0.248)	-0.590** (0.250)	-1.562*** (0.246)	-1.508*** (0.258)	-2.113*** (0.247)
<i>Observations</i>	21,844	29,340	30,191	29,468	27,328	29,886
<i>R-squared</i>	0.532	0.592	0.569	0.549	0.508	0.583

Standard errors in parentheses; \*\*\* p<0.01, \*\* p<0.05, \* p<0.1

Manba: Muallif tomonidan hisoblangan.

Mamlakatlarning umumiy kolonizatsiya ma'lumotlari ham inobatga olingan bo'lib, ushbu ko'rsatkich comcol (2.09) umumiy kolonizatsiya tarixiga ega bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi savdo aloqalari yuqori ekanligini ko'rsatadi, bu iqtisodiy aloqalarning mustahkamligidan dalolat beradi. Umumiy rasmiy tilga ega mamlakatlar comlang\_off (2.115) ko'rsatkichi umumiy rasmiy tilga ega mamlakatlar o'rtasidagi savdo aloqalari kuchayishini, bu esa savdo jarayonlarida o'zaro tushunishni oshirishini ko'rsatadi. MDH mamlakatlarning YeOII ga a'zo bo'lishi qay holatda o'zgarishini tahlil qilish uchun eksportyor mamlakatlarning YeOII mamlakatlariga eksport hajmi eaeu\_o (0.676) ko'rsatkichi ham baholangan. Ushbu tahlil asosida MDH davlatlarining YeOIIga a'zo bo'lishi eksport hajmini o'rtacha hisobda 0.676 ga oshirishini ko'rsatadi. Doimiy o'zgaruvchi Constant (-1.681) koeffitsiyenti modelda hisobga olinmagan omillar ta'sirini ko'rsatadi. O'zaro eksport hajmini ko'paytirish uchun boshqa omillar ham ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Modeldagi kuzatuvlar soni 21844 dan 30191 gacha tashkil qilib, natijalarning ishonchliligini ta'minlagan. R-kvadrat qiymatlari 0.508 dan 0.592 gacha bo'lib, bu modelning savdo hajmining o'zgarishini 50 foizdan 59 foizgacha bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Model natijalari asosida eksportga yo'naltiriladigan mahsulotlarni, xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayonidan boshlab ularni sotish jarayonlarigacha bo'lgan jarayonlarini o'z ichiga qamrab olgan uch yillik dastur ishlab chiqildi.

Xulosa qilib aytganda, YeOIIga a'zo bo'lish MDH mamlakatlari uchun eksport salohiyatini oshirishning muhim omili bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tadqiqotda

amalga oshirilgan gravitatsion model mamlakatlar o'rtasidagi mustahkam iqtisodiy, geografik va institutsional aloqalar savdo hajmini oshirishda muhim rol o'ynashi mumkinligi kuzatilgan. Savdo hajmini oshirish uchun davlatlar transport infratuzilmasini yaxshilash, savdo to'siqlarini kamaytirish, mintaqaviy integratsiyaga kirishish va umumiy xususiyatlardan samarali foydalanish orqali xalqaro savdo salohiyatini kengaytirish imkoniyati mavjud.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi **“O‘zbekistonda integratsion jarayonlarni rivojlantirish va raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy yo‘llari”** deb nomlangan bo‘lib, O‘zbekistonda integratsion jarayonlarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, integratsion jarayonlarni milliy raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan maqsadli parametrlari asoslari (Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi misolida) va O‘zbekistonni Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan integratsion aloqalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ayni paytda O‘zbekiston MDHning Erkin savdo hududi to‘g‘risidagi bitimiga qo‘shilish to‘g‘risidagi bitimni ratifikatsiya qilgandan so‘ng, barcha MDH a‘zolari bo‘lgan YeOII mamlakatlari bozorlariga chiqish imkoniyatlari kengaydi. Ushbu erkinsavdo to‘g‘risidagi bitimi MDH mamlakatlari bozorlariga imtiyozli kirishni ta‘minlash bilan birga, suveren vakolatlarining biron bir qismini milliy oliy darajaga o‘tkazishni nazarda tutmaydi. O‘zbekiston yaqin yillarda amalga oshirishni rejalashtirayotgan iqtisodiy islohotlarning mantiqiy o‘zagi mintaqaviy hamkorlik va integratsiyaning maqbul shakllarini amalga oshirishga qaratilgan. O‘zbekiston YeOII mamlakatlari bilan yanada chuqurroq aloqalarni o‘rnatishga obyektiv sharoitlar mavjud. YeOII va O‘zbekiston uchun qiziqarli va maqbul bo‘lgan yangi tashabbuslarni shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, variantlardan biri “YeOII – O‘zbekiston” erkin savdo zonasini shakllantirishdan iborat. Bunday erkin savdo shartnomasini shakllantirish hamkorlikni chuqurlashtirish, qonunchilik va me‘yoriy-huquqiy bazani, YeOII va O‘zbekiston standartlari va me‘yorlarini bosqichma-bosqich uyg‘unlashtirish uchun jiddiy asos bo‘ladi.

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi va YeOII o‘rtasidagi faol o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida:

Birinchidan, O‘zbekiston uchun YeOIIga qo‘shilishi bilan tashqi savdo hajmini oshirish imkoniyatlari kengayadi, tovarlar, mehnat, xizmatlar va kapitalning yagona bozoriga, shuningdek, texnologik, tranzit, transport va sarmoyaviy salohiyatga kirish imkoniyati ochiladi. Mamlakatning tashqi savdo aylanmasi oshadi, yuklarni tashish xarajatlari kamayadi, yangi tranzit oqimlari paydo bo‘ladi.

Ikkinchidan, erkin savdo zonalarini yaratishga yordam beradi. Jumladan, Vetnam bilan erkin savdo shartnomasi imzolandi, Eron bilan erkin savdo zonasini shakllantirishga olib keladigan vaqtinchalik kelishuv va Xitoy bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha imtiyozsiz kelishuvga erishildi. ASEAN bilan o‘zaro anglashuv memorandumini va MDH bilan hamkorlikni chuqurlashtirish to‘g‘risidagi memorandum imzolandi. Singapur, Tailand, Hindiston, Misr va Isroil bilan ham erkin savdo zonasini shakllantirish bo‘yicha kelishuvlar ishlab chiqilmoqda.

Uchinchidan, umumiy transport bozorini yaratish orqali geografik to‘siqlarni yengish imkoni yaratiladi. YeOII Rossiya, Xitoy, Yaqin va O‘rta Sharq hamda Yevropa Ittifoqining bozorlari va dengiz yo‘llariga chiqish bilan kontinental transport markazlariga soddalashtirilgan kirishni ta‘minlaydi. Rossiya – Qozog‘iston – O‘zbekiston – Turkmaniston – Eron – Ummon – Hindiston mintaqalararo koridori loyihalariga qiziqish katta. Bundan tashqari, YeOII bilan hamkorlikda O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Xitoy temir yo‘li, Mozori Sharif-Qobul-Peshovar va boshqalarni qurish kabi loyihalarni amalga oshirish mumkin.

To‘rtinchidan, yirik investitsiya loyihalarini, hududiy klasterlarni, sanoat kooperatsiyasini amalga oshirish, iqtisodiyotning turli tarmoqlari korxonalari o‘rtasidagi kooperatsiyani chuqurlashtirish, sanoat va savdo zonalarini tashkil etishda hududlararo aloqalarni rivojlantirish asoslari kengaytiriladi. “Sanoat kooperatsiyasi, subpudratchilik va texnologiyalar transferining Yevroosiyo tarmog‘i” raqamli platformasidan foydalanib kelinmoqda, bu korxonalarga YeOIIga a‘zo davlatlar orasidan hamkorlar, yetkazib beruvchilar va iste‘molchilarni izlash, o‘zaro mumkin bo‘lgan ishlab chiqarish zanjirlarini modellashtirish va ulardan optimal foydalanish, ishlab chiqarish quvvatlari, raqamli ekotizimlar yordamida mahsulotlarni targ‘ib qilish imkoniyati mavjud.

Beshinchidan, ta‘lim va fan sohalarida hamkorlik qilish, yangi tajriba va o‘qitish usullarini joriy etish orqali yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda YOIIga a‘zolik ilm-fan, texnologiya, innovatsiyalar sohasidagi hamkorlikni oshirishga imkon beradi, milliy iqtisodiyotni raqamlashtirishga va xorij innovatsion texnologiyalaridan foydalanish uchun sharoit yaratiladi.

Tadqiqot doirasida O‘zbekistonning YeOII mamlakatlariga qaratilgan eksporti bo‘yicha 2025-2030-yillar uchun prognoz tahlillari amalga oshirildi. Prognozlash jarayonida VAR (Vector Autoregression) modelidan foydalanildi. Dastlab, O‘zbekiston-Armaniston eksport aloqalarini ko‘rib chiqamiz. Prognoz natijalariga ko‘ra, 2025–2030-yillar davrida eksport hajmining dinamikasi uchta ssenariy bo‘yicha baholangan.

Optimistik ssenariyga ko‘ra, O‘zbekiston va Armaniston o‘rtasida iqtisodiy hamkorlikning jadallashuvi, bojxona to‘siqlarining qisqarishi va eksport diversifikatsiyasining chuqurlashuvi natijasida 2030-yilga kelib eksport hajmi 38.5 ming AQSH dollariga yetishi kutilmoqda. Bunda, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, oziq-ovqat tovarlari hamda farmatsevtika va kimyo sanoati mahsulotlarining eksporti o‘sishning asosiy omillari bo‘ladi. Bazaviy ssenariy holatida iqtisodiy aloqalar hozirgi sur‘atda davom etadi. Shunda 2030-yilga kelib eksport hajmi 24.3 ming AQSH dollariga yetadi. Pessimist ssenariyda esa tashqi bozorlardagi noaniqlik, geosiyosiy beqarorlik, logistika zanjirlaridagi uzilishlar va eksport diversifikatsiyasining sustlashuvi natijasida 2030-yilga kelib eksport hajmi 10.3 ming AQSH dollarigacha kamayishi mumkin. Bu holatda iqtisodiy hamkorlikning cheklanishi va tashqi talabning qisqarishi eksport salohiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonning Belarus Respublikasi bilan tashqi savdo munosabatlarida kuzatilayotgan tendensiyalar modellashtirilgan prognoz natijalari orqali har uchta ssenariy – bazaviy, optimistik va pesimistik yo‘nalishlarda baholandi.


Optimistik ssenariy sharoitida O‘zbekiston va Belarus o‘rtasida iqtisodiy aloqalarning yanada mustahkamlanishi kutilmoqda. Bu holatda 2030-yilga borib eksport hajmi 286.9 ming AQSH dollariga yetishi mumkin. Bunda eksport qiymatining o‘sishi kimyo va farmatsevtika mahsulotlari eksportining kengayishi, oziq-ovqat mahsulotlari, ayniqsa meva-sabzavot va tayyor konservalarning eksporti ortishi kabi omillar ta‘rida bo‘lishi bilan izohlanadi. Bazaviy ssenariyda O‘zbekiston–Belarus iqtisodiy hamkorligi mavjud sur‘atda davom etadi, ya‘ni yangi yirik qo‘shma loyihalar yoki imtiyozli savdo mexanizmlarining joriy etilishi cheklangan bo‘ladi. Shu sharoitda 2030-yilga kelib eksport hajmi 200.3 ming AQSH dollariga yetadi. Belarus O‘zbekiston uchun YeOIIDagi o‘rta ahamiyatli, ammo istiqbolli sherik sifatida qoladi. Pessimist ssenariyda tashqi iqtisodiy muhitdagi beqarorlik, transport-logistika tizimidagi uzilishlar yoki Belarus ichki bozoridagi talabning qisqarishi eksport hajmining pasayishiga olib keladi. Bunday holatda 2030-yilga kelib eksport hajmi 113.7 ming AQSH dollarigacha tushishi mumkin.

O‘zbekistonning Qozog‘iston Respublikasi bilan tashqi savdo munosabatlari ikki tomonlama integratsiya jarayonlarining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Prognoz natijalariga ko‘ra, 2025–2030-yillar davrida eksport hajmining dinamikasi uchta ssenariy bo‘yicha baholangan. Optimistik ssenariy sharoitida O‘zbekistonning Qozog‘istonga eksporti 2030-yilga kelib 2.15 mlrd AQSH dollarigacha yetishi prognoz qilingan. Bu tendensiya savdo rejimlarining liberallasuvi, transport infratuzilmasining yaxshilanishi hamda qo‘shma sanoat korxonalari soni ortishi bilan bog‘liq. Shuningdek, YE OII doirasidagi texnik reglamentlar va sertifikatlash standartlariga moslashuv eksport o‘shishiga xizmat qilishi mumkin. Bazaviy ssenariy prognoz natijalari eksport hajmining 2025–2030-yillarda 1.73 mlrd AQSH dollari atrofida barqaror o‘shishini ko‘rsatadi. Bu holat mavjud savdo munosabatlari saqlanib qolishi, tashqi talabning qoniqarli bo‘lishi va logistika tizimida keskin o‘zgarishlar bo‘lmasligi sharoitida yuz beradi. Pesimistik ssenariy bo‘yicha esa 2026–2027-yillarda ma‘lum pasayish tendensiyasi ehtimoli mavjud bo‘lib, eksport hajmi 1.08 mlrd AQSH dollarigacha tushishi mumkin. Bu holat tashqi bozordagi talabning kamayishi, transport yo‘nalishlaridagi muammolar yoki Qozog‘istondagi ichki talabning qisqarishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

O‘zbekistonning Qirg‘iziston bilan tashqi savdo aloqalari Markaziy Osiyo mintaqasidagi iqtisodiy hamkorlik tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Prognoz natijalari 2025–2030-yillar davridagi eksport hajmining ehtimoliy o‘shish tendensiyasi uchta ssenariyda baholandi. Optimistik ssenariy bo‘yicha eksport hajmi 2030-yilga kelib 932 ming AQSH dollarigacha yetishi kutilmoqda. Bu holatda O‘zbekistonda ishlab chiqarish tarmoqlarining modernizatsiyasi, mahsulotlar sifatining xalqaro standartlarga moslashuvi hamda logistika tizimining rivojlanishi asosiy omillar bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, YeOII talablariga muvofiq sertifikatlash va texnik standartlashuv tizimlarining joriy etilishi savdo o‘shishini tezlashtirishi mumkin. Bazaviy ssenariy bo‘yicha 2025–2030-yillarda eksport hajmi 716 ming AQSH dollari atrofida barqaror saqlanishi kutilmoqda. Bu holat tashqi talabning qoniqarli bo‘lishi va ikki davlat o‘rtasidagi savdo siyosatining izchil davom etishi sharoitida amalga oshadi. Pesimistik ssenariy esa ehtimoliy xavflarni ko‘rsatib, eksport hajmining 499 ming AQSH dollarigacha pasayishi mumkinligini

ta'kidlaydi. Bu holat tashqi bozordagi noaniqliklar, transport infratuzilmasidagi cheklovlar yoki valyuta kurslarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

O'zbekistonning Rossiya Federatsiyasi bilan 2025–2030-yillardagi eksport hajmining ehtimoliy o'sish tendensiyasi uchta ssenariyda baholandi. Optimistik variantda eksport hajmi 4 mlrd 460 ming AQSH dollarigacha oshishi mumkin. Bu holat Rossiya bozorida O'zbekiston mahsulotlariga talabning ortishi, qo'shma ishlab chiqarish korxonalarining soni ko'payishi, O'zbekiston eksportida qayta ishlangan mahsulotlar ulushining ortishi kabi omillarga bog'liq. Bazaviy prognozga ko'ra, O'zbekistonning Rossiyaga eksporti 2024–2030-yillar oralig'ida barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qoladi. 2030-yilga borib eksport hajmi 6 mlrd 652 ming AQSH dollari atrofida bo'lishi kutilmoqda. Bu o'sish iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish, eksport mahsulotlari turlarini diversifikatsiya qilish va logistika imkoniyatlarini kengaytirish orqali qo'llab-quvvatlanadi. Pessimist ssenariyda eksport 2 mlrd 267 ming AQSH dollarigacha kamayishi mumkin. Bu asosan Rossiyada iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashuvi yoki sanksion bosimlar ortishi, O'zbekiston eksport mahsulotlarining sifat yoki standartlarga mos kelmasligi kabi xavflar bilan bog'liq.



### 1-rasm. O'zbekiston-YeOII eksport bo'yicha prognoz tahlili

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

O'zbekistonning YeOII bilan hamkorlikni chuqurlashtirish, texnik reglamentlarni uyg'unlashtirish, sertifikatlashtirish tizimini integratsiyalash va qo'shma ishlab chiqarish loyihalarini kengaytirishi natijasida 2030-yilga kelib eksport hajmi 9.7 mln AQSH dollariga yetishi mumkin (1-rasm). Bazaviy holatda, O'zbekiston kuzatuvchi maqomini saqlagan holda, hozirgi savdo aloqalari hajmi va sur'atlarini barqaror davom ettirsa, 2030-yilga kelib eksport hajmi 6.8 mln AQSH dollariga yetadi. Agar tashqi bozorlarda proteksionizm kuchaysa yoki YeOII mamlakatlarida import cheklovlari joriy etilsa, shuningdek, O'zbekistonning kuzatuvchi maqomidan chiqish jarayoni cho'zilsa, 2030-yilga borib eksport hajmi 3.9 mln AQSH dollarigacha kamayishi mumkin.

Umuman olganda, hatto kuzatuvchi maqomida bo'lish sharoitida ham O'zbekiston YeOII mamlakatlariga eksportni 2030-yilgacha bazaviy holatda 20–25 foizga, optimistik ssenariyda esa 70 foizga yaqin oshirish imkoniyatiga ega. Bu esa iqtisodiy integratsiya jarayonlarining O'zbekiston milliy raqobatbardoshligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Yuqori keltirilgan prognoz natijalariga erishi uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etildi:

1. Raqobatbardosh ishlab chiqarish va eksport diversifikatsiyasini kengaytirish - YeOII mamlakatlari bozorida yuqori talabga ega bo'lgan organik qishloq xo'jaligi, to'qimachilik va kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksportga yo'naltirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin. Shu maqsadda ishlab chiqarish tarmoqlarida texnologik modernizatsiya, xomashyo ta'minoti barqarorligini ta'minlash va qo'shimcha qiymat yaratish jarayonlarini kengaytirish zarur.

2. Mahsulotlarni yetishtirishdan boshlab ularni eksportga chiqarish jarayonlarini o'z ichiga olgan uch yillik dasturni ishlab chiqish - YeOII mamlakatlari bilan o'zaro savdoda barqaror o'sishga erishish uchun eksport yo'nalishlarida ekin yetishtirish, saqlash, qayta ishlash, logistika va sotish bosqichlarini o'z ichiga oluvchi uch yillik dastur ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Bu dastur ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi va eksportchi korxonalar o'rtasida integratsiyalashgan iqtisodiy tizimni shakllantiradi hamda tashqi bozorlarga chiqish xarajatlarini kamaytiradi.

3. “Eksport akselerator” modelini joriy etish - YeOII mamlakatlariga eksportni kengaytirishning zamonaviy mexanizmlaridan biri sifatida “Eksport akselerator” modeli taklif etiladi. U O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan bo'lib, bozor tahlili, mahsulot moslashuvi, logistika infratuzilmasini takomillashtirish, savdo targ'iboti va marketing hamda huquqiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

4. Sifat infratuzilmasi va sertifikatlash tizimini takomillashtirish - eksport qilinadigan mahsulotlarning xalqaro va YeOII texnik reglamentlariga mosligini ta'minlash maqsadida milliy sertifikatlashtirish tizimini modernizatsiya qilish zarur. Fitosanitar, veterinariya va sifat sertifikatlarini beruvchi laboratoriyalarni YeOII akkreditatsiya tizimiga integratsiya qilish eksport jarayonlarini soddalashtiradi va eksportchi korxonalar uchun xarajatlarni kamaytiradi.

5. Valyuta xavfini boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash - Integratsion guruhlarda faoliyat yuritayotgan eksportchi korxonalar uchun valyuta kursining o'zgaruvchanligi muhim xavf omillaridan biri sanaladi. Shu bois xedjlash mexanizmlarini joriy etish orqali valyuta xavflarini boshqarish taklif etiladi. Banklar va moliyaviy institutlar ishtirokida valyuta barqarorligini qo'llab-quvvatlash, eksportchilar uchun risklarni kamaytiruvchi moliyaviy vositalar (forward, swap, opsiyon bitimlari)ni amaliyotga kiritish zarur.

6. Milliy brend va eksport marketingini rivojlantirish - YeOII mamlakatlarida O'zbekiston mahsulotlarini tanitish va brendlash orqali eksport salohiyatini oshirish mumkin. Sabzavot va mevalarni chuqur qayta ishlash, ularning po'stlog'i va danaklaridan eksportga yo'naltirilgan ikkilamchi mahsulotlar yaratish nafaqat qo'shimcha qiymatni oshiradi, balki milliy brend imijini mustahkamlaydi. “Made in

Uzbekistan” belgisi ostida sifatli mahsulotlarni ilgari surish eksport marketingining asosiy yo‘nalishiga aylanishi lozim.

## XULOSA

Tadqiqot ishi doirasida amalga oshirilgan ilmiy-nazariy va amaliy tahlillarga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelingan va uni amalga oshirish mexanizmlari bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan:

1. Ilmiy yondashuvlar va talqinlarni o‘rganish natijasida, zamonaviy global o‘zgarishlar va integratsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, “xalqaro iqtisodiy integratsiya” va “milliy raqobatbardoshlik” tushunchalariga mualliflik ta’rifi taklif etildi.

2. Dissertatsiya ishida qiyosiy tahlil, taqqoslash, ma’lumotlarni yig‘ish va guruhlash, iqtisodiy indekslar, ekonometrik tahlil va prognozlash usullaridan foydalanilgan. Eksport salohiyati va uni amalga oshirishga ta’sir etuvchi omillarni har tomonlama baholash maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatning joriy holati va istiqbollarni tahlil qilish uchun qiyosiy ustunlik indeksleri (RCA), savdoni to‘ldiruvchi indeks (TCI), qiyosiy eksport ko‘rsatkichlari indeksi (CEP) hamda ta’sirni baholash modellari (DID) va gravitatsion modellardan foydalanish asoslangan.

3. Qiyosiy ustunlik (RCA) indeksini aniqlash orqali organik qishloq xo‘jalik mahsulotlaridan olma, uzum, o‘rik, qovun va pomidor, to‘qimachilik mahsulotlaridan paxta ip-kalavasi, trikotaj futbolkalar va sport kiyimlari hamda kimyo mahsulotlaridan ammoniy nitrat, xlorat va karbonatlarni YeOII standartlariga mos ravishda tayyorlash hamda eksportga yo‘naltirish ularni ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish mumkinligi asoslab berilgan.

4. Tadqiqot doirasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini TIF TN kodlari bo‘yicha tahlil qilish natijasida YeOII mamlakatlariga eksport salohiyatini oshirish maqsadida ushbu mahsulotlarni ekishdan torib ularning sotish zanjirlarini o‘zida mujassamlashtirgan uch yillik kompleks dastur ishlab chiqilgan.

5. Xalqaro sifat va xavfsizlik standartlariga muvofiq raqobatbardosh meva va sabzavotlarning po‘stlog‘i va danaklarini (TCI va CEP indeksleri bo‘yicha baholash natijalariga ko‘ra) ikkilamchi qayta ishlash hisobiga fitosanitar ruxsatnomalar bilan eksport qilinadigan mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish taklif etildi.

6. O‘zbekistonning YeOII mamlakatlariga qaratilgan tashqi savdo siyosatini xomashyo eksportiga yo‘naltirilgan modeldan yuqori qo‘shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar eksportiga o‘tkazish orqali xalqaro bozorlarda milliy raqobatbardoshlikni mustahkamlashi mumkinligi asoslangan.

7. DID modeli tahlili va gravitatsion modellashtirish natijalari asosida O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan "Eksport akseleratori" modeli taklif etildi. U yuqori texnologiyali eksportni rag‘batlantirish, chegara hududlarida maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish, bozor tahlili, mahsulotlarni moslashtirish, logistika, marketing, shuningdek, eksportchilarni huquqiy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

8. Integratsion birlashmalar doirasida faoliyat yuritayotgan eksportchi korxonalar uchun valyuta risklarini minimallashtirish maqsadida tijorat banklari va

rivojlanish institutlari ishtirokida (shu jumladan derivativlar - forvardlar, svoplar, opsionlardan foydalangan holda) valyuta xedjirlash vositalarini joriy etish va moliyaviy barqarorlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

9. O‘zbekistonning milliy raqobatbardoshlik salohiyatidan kelib chiqib, YeOII mamlakatlariga eksport hajmlarini 2030-yilgacha bosqichma-bosqich oshirish bo‘yicha prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.14/30.12.2019.I.84.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ  
МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ**  

---

**ИНСТИТУТ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ  
ИССЛЕДОВАНИЙ**

**АШУРОВА ШАХИНА БУРХОНЖОН КИЗИ**

**РАСШИРЕНИЕ ВНЕШНЕТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ  
УЗБЕКИСТАНА СО СТРАНАМИ ЕАЭС ПУТЕМ ПОВЫШЕНИЯ  
ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКСПОРТНОЙ ЦЕПОЧКИ**

**08.00.02 – Макроэкономика**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

**Ташкент – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on economical  
sciences**

**Ashurova Shahina Burhonjon qizi**

Eksport zanjiri samaradorligini oshirish orqali O'zbekistonning YeOII  
mamlakatlariga tashqi savdo munosabatlarini  
kengaytirish.....3

**Ашурова Шахина Бурхонжон кизи**

Расширение внешнеторговых отношений Узбекистана со странами ЕАЭС  
путем повышения эффективности экспортной цепочки  
.....27

**Ashurova Shahina Burxonjon qizi**

Expanding Uzbekistan's foreign trade relations with EAEU countries through  
increasing the efficiency of the export chain.....  
51

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published  
works.....56

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.14/30.12.2019.I.84.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ  
МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ**  

---

**ИНСТИТУТ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ  
ИССЛЕДОВАНИЙ**

**АШУРОВА ШАХИНА БУРХОНЖОН КИЗИ**

**РАСШИРЕНИЕ ВНЕШНЕТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ  
УЗБЕКИСТАНА СО СТРАНАМИ ЕАЭС ПУТЕМ ПОВЫШЕНИЯ  
ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКСПОРТНОЙ ЦЕПОЧКИ**

**08.00.02 – Макроэкономика**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

**Ташкент – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за B2025.3.PhD/Iqt1646.**

Диссертация выполнена в Институте макроэкономических и региональных исследований.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.imrs.uz](http://www.imrs.uz)) и информационно-образовательного портала ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** **Курбанова Дилфуза Махсудовна**  
кандидат экономических наук, доцент

**Официальные оппоненты:** **Эшчанов Бахтиёр Рузумбаевич**  
доктор экономических наук (DSc), доцент

**Кулдашева Зебо Холжигитовна**  
доктор экономических наук (DSc), доцент

**Ведущая организация:** **Филиал Российского экономического университета имени Г.В. Плеханова в г. Ташкенте**

Защита диссертации состоится « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.14/30.12.2019.I.84.01 по присуждению ученых степеней при Институте макроэкономических и региональных исследований. Адрес: 100011, город Ташкент, массив Хадра, 33а-уй. Тел.: (99871) 244-01-80, факс: (99871) 244-01-80; e-mail: [info@imrs.uz](mailto:info@imrs.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института макроэкономических и региональных исследований (зарегистрирован под № \_\_\_\_). Адрес: 100011, город Ташкент, массив Хадра, 33а-уй. Тел.: (99871) 244-01-80, факс: (99871) 244-01-80; e-mail: [info@imrs.uz](mailto:info@imrs.uz).

Автореферат диссертации разослан « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 года.  
(протокол реестра № \_\_\_\_ 2025 год « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_).

**Т.М.Ахмедов**  
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

**М.М.Каримов**  
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, PhD, доцент

**Х.О.Сайдалиев**  
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD**

### **Актуальность и востребованность темы диссертации.**

интеграции в современных условиях в мире остаётся актуальным благодаря ускорению экономического роста за счет взаимного обмена современной техникой и технологиями на основе формирования единого рынка, установления единого контроля качества, устранения межстрановых таможенных барьеров и стабилизации цен. Этот процесс имеет важное значение во внешней торговле между странами. Если обратить внимание на мировую статистику, «если за последние десять лет темпы роста ВВП только ASEAN составил 8,4%, то в Евразийском экономическом союзе (далее - ЕАЭС) за последний год составил 3,8%, а объем взаимного товарооборота нашей страны со странами ЕАЭС за последние три года увеличился на 60%»<sup>51</sup>.

В мире проводятся научные исследования по приоритетным направлениям влияния интеграционных процессов на миграцию и формирование валютных рынков, экономическую безопасность страны и приток инвестиций, разработку их современных форм. Актуальное значение приобретают объединение стран с высокопотенциальными трудовыми ресурсами в единый рынок труда, оценка влияния интеграции на суверенитет страны, регулирование интеграционных механизмов для инвесторов.

В последние годы в нашей стране реализуется ряд мер, направленных на увеличение объемов экспорта путем привлечения иностранных и местных инвестиций в экономику. В частности, создается благоприятная деловая среда для экспорта сельскохозяйственной продукции и принимаются меры по увеличению экспортного потенциала регионов. «Фактически, чтобы вывести экономику нашей страны на новый уровень, необходимо увеличивать экспорт не менее чем на 30 процентов ежегодно»,<sup>52</sup> - подчеркнул Президент Республики Узбекистан. В связи с этим широкое привлечение иностранных инвестиций, глубокий анализ их влияния на валовой внутренний продукт, добавленную стоимость, экспорт, изучение продукции, экспорт которой не растет, улучшение рейтинга конкурентоспособных видов продукции на мировых рынках, более широкий анализ факторов, влияющих на них, имеет научное и практическое значение.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-6091 от 21 октября 2020 года «О мерах по дальнейшему расширению финансовой поддержки экспортной деятельности», № УП-97 от 6 апреля 2022 года «О дополнительных мерах по поддержке участников внешнеторговой деятельности», № УП-158 от 11 сентября 2023 года «О стратегии «Узбекистан-

<sup>51</sup> Выступление Президента Республики Узбекистан на заседании Высшего Евразийского экономического совета 8 мая 2024 года.

<sup>52</sup> Выступление Президента Республики Узбекистан на видеоселекторном совещании по приоритетным задачам в области инвестиций, экспорта и международного сотрудничества на 2024 год 18 января 2024 года.

2030», № ПП-5184 от 13 июля 2021 года «О дальнейшем усилении финансовой поддержки экспортной деятельности», № ПП-126 от 14 марта 2024 года «О мерах по дальнейшему повышению роли объединений предпринимателей в развитии внешней торговли и региональной промышленности», План ЕЭК от 1 октября 2024 года «План совместных мероприятий Евразийской экономической комиссии и Правительства Республики Узбекистан на 2024-2026 годы», а также в других нормативно-правовых документах, касающихся данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование системы социальных, правовых и экономических инновационных идей в информационном обществе и демократическом государстве и пути их реализации».

**Степень изученности проблемы.** научно-исследовательские работы по теории международной торговли, методологии и приоритетным направлениям развития экономических интеграционных процессов проводили такие ученые зарубежных стран как Э.Хекшер<sup>53</sup>, Б.Олин<sup>54</sup>, Г.Хаберлер<sup>55</sup>, Д.Салваторе<sup>56</sup>, Ж.Вайнер<sup>57</sup>, Я.Тинберген<sup>58</sup>, Б.Баласса<sup>59</sup>, Ж.Мид<sup>60</sup>, Х.Жонсон<sup>61</sup>, Sean Burges<sup>62</sup>, Ganeshan Wignaraja<sup>63</sup>, Pabasara Kannangara<sup>64</sup>, Peter Claeys<sup>65</sup>, Helena Sanz-Morales<sup>66</sup>, Naoyuki Yoshino<sup>67</sup>, Peter J.Morgan<sup>68</sup>, Kaliappa Kalirajan<sup>69</sup> и др.,

<sup>53</sup> Хекшер Э. “International trade and economic history”. – Massachusetts Institute of Technology, London 2006.;

<sup>54</sup> Олин Б. “Interregional and international trade”. – Harvard university press, Cambridge, 1935.;

<sup>55</sup> Хаберлер Г. “Процветание и депрессия” теоритический анализ циклических колебаний. – Социум, Челябинск, 205, 474 с. [file:///C:/Users/Admin/Downloads/\[Gotfrid\\_Haberler\]\\_Procvetanie\\_i\\_depressiya\\_Teore\(libcats.org\).pdf](file:///C:/Users/Admin/Downloads/[Gotfrid_Haberler]_Procvetanie_i_depressiya_Teore(libcats.org).pdf;);

<sup>56</sup> Салваторе Д. “International economics” – Fordham university, USA, 2013. [http://dl.iranidata.com/book/daneshgahi/Dominick\\_Salvatore-International\\_Economics\(www.Iranidata.com\).pdf](http://dl.iranidata.com/book/daneshgahi/Dominick_Salvatore-International_Economics(www.Iranidata.com).pdf;);

<sup>57</sup> Вайнер Дж. “The customs union issue” – New York, Carnegie Endowment for international peace, p.195.;

<sup>58</sup> Тинберген Я. “Mathematical Models of Economic Growth”, McGraw-Hill, 1962.;

